2023-yil. 14-son

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературе – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) https://oak.uz/pages/4802

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda inson qadri ulug‘lanadigan adolatli, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlarimiz jadid bobolarimizning ezgu g‘oya va dasturlariga har jihatdan uyg‘un va hamohangdir.

Shavkat MIRZIYOYEV

“Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari”

“Tilda, fikrda, ishda birlik” degan ezgu g‘oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g‘aflat botqog‘idan qutqarishning asosiy yo‘li – bilim va ma’rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar.

2023-YIL 14-SON

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot. uz

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Yorqinjon Odilov
Jabbor Eshonqulov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
To'lqin Saydaliyev
Barno Buranova
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Salima Jumayeva
Qayum Baymirov
Manzar Abdulxayrov
Alijon Safarov
Madina Nuriddinova
Latifa Xudayqulova
Barno Kadirova
Nargiza Mirzayeva
Guli Shukurova
To'maris Butunbayeva
Ramziddin Abdusatorov
Okila Turakulova
Yuldosh Raxmatov
Ramziddin Abdusatorov
Feruza Manukyan

Axborot hamkorimiz:

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

Muharrirlar:

Lutfullo JO'RAYEV
Bibimaryam RAHMONOVA
Oydin SHUXRATOVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

M U N D A R I J A

TADQIQOT

Salima Jumayeva. Ikrom Otamurod she'riyatida fonetik tejamlilik va ortiqchalikning uslubiy xoslanishi....3
Botir Zaripov. "Ajdar" mifologemasi va lingvopoetikasi ("Xamsa" asari misolida)....6
Baxodir Sherbekov. O'zbek va nemis tillarida paremiologik birliklarning muqobillik darajasi....8
Muxlisa Yigitaliyeva. Ornitonimlarning ikkilamchi ramziy ma'nolarining rivojlanishi....10
Xasan Gafforov. Ingliz va o'zbek tillarida gender belgili frazeologik birliklarni o'rganish mezonlari....13
Xurshida Djalilova. XVIII asr ingliz va XX asr boshi o'zbek sayohat adabiyotida ma'rifat masalalarining aks etishi....14
Madina Muhammadalieva. Tibbiyot sohasi bilan bog'liq kasb-hunar nomlarining leksik-semantik xususiyatlari....20
O'tkir Ostonov. "Qutadg'u bilig"ning nomlanishi va asar nomidagi "qut" va "bilig" so'zlarining lug'aviy ma'nolari....22
Sh.Nizamova, Nilufar Astanaqulova. Boshlang'ich sinf ona tili darsliklaridagi tasviriy matn haqida....24
Sitorabonu Ataullayeva. Ketrin Mensfild ijodida ayol obrazi....26
Dilnoza Boymaxmatova. Ona tili ta'limida gnoseologik yondashuv orqali yozma nutqni takomillashtirish....30
Habiba Ergasheva. Yangilangan shakl mohiyati (Shoir Faxriyor ijodi misolida)....34
Latofat Fayziyeva. O'zbek tilida "harakat tarzi" ma'nosining ifodalanishi....36
Saboxat Muxammadova. Maqol va boshqa paremiologik birliklar....38
Sadoqat Rajabova. Samarqand hududida yashovchi o'zbeklashgan etnik arablar....40
Uyg'un Xamroyev. Fransuz, ingliz va o'zbek tillarida diplomatiya leksikasining dastlabki shakllanish bosqichlari....42
Yulduz Tursunova. Abdulla Qahhor hikoyalarida uchrovchi turkiy va arabiy ayollar ismining leksik-semantik va grammatik xususiyatlari....45
Yulduz Xaitova. Ra'no Uzoqova va Shafoat Rahmatullo Termiziy ijodida-folklor an'analari....48
Botir Oqbutayev. Tasavvuf bilimdoni....50
Xuriyat Xudoymurodova. Biografik qissalarda ona obrazi (O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi misolida)....52
Komiljon Qarshiyev. G'afur G'ulom ijodining janr xususiyatlari....54
Sherali Bazarov. Jurnalist va blogerlar nutqining paragmalingvistik xususiyatlari..56
Gulmera Qurbonova. So'zlarni semasiologik va onomasiologik nuqtayi nazardan qiyoslash va tahlil qilish....59
Asliddin Obidov. Markaziy Osiyolik mutafakkirlar qarashlarida bag'rikenglik g'oyalarining shaxs shakllanishiga ta'siri....61
Hulkar Jo'raqulova. O'xshatishlarning lingvokulturologik xususiyatlari (Qoraqalpoq va o'zbek tilidagi o'xshatishlar misolida....66
Akram Hamdamov. G'am bandining badiiy tasviri....68
Pulat Fozilov. Ingliz va o'zbek tilidagi fiziologik holat fe'llarning semantik xususiyatlari....69

Ilmiy-metodik elektron jurnal

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayasatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir. https: //oak.uz/pages/4802

yoki robot portretli matnlar bo‘lib, subyektiv tavsiflovchi matnlar badiiy matnlarni va shaxsiy nuqtayi nazardan tasvirlaydigan barcha narsalarni qamrab oladi. Ta’riflovchi matnlarning turlari ikkita katta guruhga bo‘linadi: obyektiv tavsiflovchi va subyektiv tavsiflovchi. Obyektiv tavsiflovchi matnlarning namunalari ilmiy, texnik, ijtimoiy va qo‘llanma matnlardir. Subyektiv tavsiflovchi matnlarga misol sifatida fikr matnlari, reklama matnlari, she’rlar, romanlar, qo‘shiqlar va xronikalar kiradi. Odamlar muloqot qilganda, ular so‘zlarni muayyan hodisalarni tavsiflash uchun vosita sifatida ishlatishga moyildirlar.[5,256]

Shaxs doimo o‘z fikrlarini uyg‘otadi, ular odamlar, hayvonlar, narsalar, g‘oyalar yoki istaklarni tasvirlash orqali namoyon bo‘ladi. Barcha yozma materiallarda yozuvchi, hikoya qiluvchi yoki eshittiruvchining niyatida qadriyat bormi yoki yo‘qligini taxmin qilish juda muhimdir. Bu maqsad subyektning ifodaga qo‘yishga qaror qilgan aralashuv darajasi va turiga bog‘liq. Bu asos ostida, matn obyektiv yoki subyektiv bo‘lishi mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, tasviriy ifodalar orqali tasviriy matnni shakllantirildi, ilmiy-ommabop asarlarni o‘qitish metodikasi, o‘qish darslarida og’zaki nutqni o‘stirish yo‘li va vositalari, umumlashtiruvchi o‘qish darslarini tashkil etish orqali o‘quvchilar nutqini o‘stiriladi. O‘quvchilarning nutqini o‘stirishda, yuqoridagilar bilan birga, adabiy tushunchalarni shakllantirish ham muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilar adabiy tushunchalarni o‘rganish natijasida badiiy adabiyot san’atning bir turi ekanligi, uning hayot bilan aloqadorligini bilib oladilar, asarlardan tasviriy matnni topib parchalar keltirildi, badiiy asardan olingan tasviriy matn ham adabiyotga bo‘lgan qiziqishini oshiradi ham tasviriy matn tushunchasini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ta’lim taraqqiyoti. Boshlang‘ich ta’lim, «Sharq» 1999-yil, 7-maxsus son.
2.Yangi tahrirdagi DTS - 2005-yil. Boshlang‘ich ta’lim jo‘rnali, 5-son.
3.I.Azimova, K. Mavlonova, S. Quronov, Sh. Tursun. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 2-sinf –Toshkent, 2021
4.I.Azimova, K. Mavlonova, S. Quronov, Sh. Tursun. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-sinf –Toshkent, 2021
5.K.Qosimova va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi.- Toshkent: “Nosir"nashriyoti, 2009
6.I.Azimova, K. Mavlonova, S. Quronov, Sh. Tursun. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 3-sinf –Toshkent, 2021
7.Oxunjonova O. Matn yaratish jarayonida sinonimlardan foydalanish. // “Til va adabiyot ta’limi” jurnali № 2 2008. 7-b.
8.Abdullaeva Q. Raxmonbekova S. 2-sinfda. O‘qish darslari. (O‘qituvchi kitobi.) –Toshkent. O‘qituvchi, 2004-yil.
9.G‘afforova T. G‘ulomova X. 1-sinfda o‘qish dasrlari (O‘qituvchi kitobi.) –Toshkent. Sharq. 2003 -yil.
10.Shojalilov A. va boshqalar. «O‘qish kitobi», «O‘qituvchi», 2004-yil.
11.Umarova M. «O‘qish kitobi» 3- sinf uchun. T., «O‘qituvchi» 2003- yil.

Sitorabonu ATAULLAYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti
ingliz tili o‘qituvchisi

KETRIN MENSFILD IJODIDA AYOL OBRAZI

Annotatsiya: ushbu maqola taniqli ingliz adibasi Ketrin Mensfild hikoyalarida ayol obrazi talqiniga bag‘ishlangan. Unda, bir nechta hikoyalar asosida, yozuvchining obraz yaratish, motivlardan foydalanish, so‘z qo‘llash mahorati yoritilgan. Bundan tashqari o‘sha davr adabiyotida feminizm oqimining ta’siri, adabiyotda ayol xarakterini, u hayotda duch kelayotgan muammolarni ko‘rsatib, uning oldini olish va kurashishga da’vat etish yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *hikoya, feminizm, fojeaviy optimizm, gender tengsizlik, gender stereotiplari, uslub, syujet, voqealar rivoji, ramziylik, obraz, personaj, motiv, an’ana.*

Annotation: this article discusses the portrayal of female characters in the stories of renowned English writer Catherine Mansfield. The article highlights Mansfield's impressive skills in creating vivid characters, utilizing motifs, and employing language. Additionally, the article explores how the feminist movement influenced literature during that time, the representation of women in literature, the challenges they faced in real life, and the call to action to prevent and combat such issues.

Keywords: *story, feminism, tragic optimism, gender inequality, gender stereotypes, style, plot, development of events, symbolism, image, character, motive, tradition.*

Ketrin Mensfild XX asrda yashab ijod etgan mashhur ingliz yozuvchilaridan biri. O‘zi Yangi Zelandiyalik bo‘lsada, umri davomida Germaniya, Fransiya va boshqa bir qator davlatlarda yashagan. Hikoyalarini o‘sha yerlardagi ijtimoiy hayotdan kelib chiqqan holda, mahalliy aholining turmush tarzini o‘rganib yozgan. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, uning hikoyalarida, ayniqsa, ayol taqdiri, qismati muammolari muhim o’rin tutadi. Hikoyalaridagi, deyarli, barcha bosh qahramonlar har xil xarakterdagi ayollardir. Ketrin Mensfild ijodida ayol obrazi talqini haqida gapirganimizda, feminizm haqida ham to‘xtalib o‘tishni joiz deb hisobladik. Chunki uning asarlaridagi mazmun va g‘oyalar ayollarning jamiyatda tutgan o‘rni, ularning haq-huquqlarini himoya qilish yoki haq-huquqlari poymol etilgan holatlarni ommaga oshkor etish va shunday holatlarni oldini olishga qaratilgan deb aytishimiz mumkin.

Feminizm – jinslarning siyosiy, iqtisodiy, shaxsiy va ijtimoiy tengligini aniqlash va o‘rnatishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy harakatlar va mafkuralar majmuasidir. Gender tengsizlikni o‘zgartirishga qaratilgan sa’y-harakatlar sirasiga gender stereotiplarga qarshi kurash, ayollar uchun ta’lim, kasbiy va shaxslararo munosabatlar va imkoniyatlarni yaxshilash kiradi. XVIII asr oxirida Yevropada paydo bo‘lgan feministik harakatlar ayollar huquqlari, jumladan, saylov, davlat lavozimlariga saylanish, ishlash, teng maosh olish, mulkka egalik qilish, ta’lim olish, shartnomalar tuzish, teng huquqlarga ega bo‘lish kabi huquqlar uchun kurash olib borgan.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ayollar faqat uy-ro‘zg‘or ishlari bilan chegaralangan, jamoat hayoti esa faqatgina erkaklar uchun ajratilgan edi. O‘rta asrlarda Yevropada ayollar mulkka egalik qilish, o‘qish va jamoat hayotida qatnashish huquqiga ega emas edilar. XIX asrning oxirida Fransiyada ular hali ham omma oldida boshlarini yopib yurishga majbur edilar. Germaniyaning ba’zi qismlarida er hali ham xotinini sotish huquqiga ega edi. Hatto, XX asr boshlarida, Yevropada va Qo‘shma Shtatlarning ko‘p qismida ham ayollar na ovoz berishlari va na saylangan lavozimlarni egallashlari mumkin edi. Ayollarning otasi, ukasi, eri, hatto o‘g‘li bo‘lishidan qat’i nazar, erkak vakilsiz savdo-sotiq ishlarini yuritish ta’qiqlangan edi. Ayollarning ta’lim olish imkoni juda kam yoki umuman yo‘q edi. Ko‘pgina kasblarni egallash huquqidan mahrum edilar. Dunyoning ayrim mamlakatlarida ayollarga nisbatan bunday cheklovlar bugun ham davom etmoqda. Mana shu kabi adolatsizliklarga chek qo‘yish niyatida, ayollar tomonidan xotin-qizlar haq-huquqlari uchun kurash jamiyatlari tashkil topa boshlagan.

Bizga ma’lumki, Ketrin Mensfild XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod etgan. Shu davrdagi Mensfild kabi, ko‘pgina ayol yozuvchilar ham feminizm g‘oyalari ta’sirida bo‘lishgan. Ularning asarlari ayollarning jamiyatdagi mavqeyini tiklashga qaratilgan. Gender tengsizlikka qarshi kurash g‘oyalari yetakchilik qilgan.

Mensfild – jahonda taniqli yozuvchilardan biri. Shu sababli, muallif hikoyalari ustida ko‘plab izlanishlar olib borilgan. Jumladan, Aihong Ren “Ketrin Mensfild hikoyalarida ayol xarakterlari” (“Women Characters in Katherine Mansfield’s Short Stories”) deb nomlangan maqolasida yozuvchi hikoyalaridagi ayol obrazi, ularning o‘ziga xos ifoda shakli borasida muhim xulosalarni bayon etgan. Jumladan, ulardagi ayol xarakterlarini bir necha kategoriyalarga bo‘lgan:

“As a woman writer, Mansfield is very much concerned with the position of women in society. Stories of women take up most of her compositions, in which she captures various women’s plight and pain. Her female characters can be neatly divided into three categories: victims in the family, invisible women at the workplace, dolls and rebels. Poor or rich, single or married, Mansfield’s women characters are all victims of their society. A discussion of Mansfield’s stories about women can enrich understanding not only of the complicated conditions of women in Western society at her time but also of her contributions to modern literature, especially to the female culture.” [Aihong Ren. CS CANADA. Studies in Literature and Language.Vol.5 No 3 (2012)] (“Mensfild ayol yozuvchi sifatida ayollarning jamiyatdagi mavqeyi bilan juda qiziqadi. Hikoyalar kompozitsiyasining asosini ayollar haqidagi sujetlar egallaydi. U ayollarning turli og‘ir ahvoli va dardlarini aks ettiradi. Uning ayol qahramonlarini uchta toifaga ajratish mumkin: oiladagi qurbonlar, ish joyidagi ko‘rinmas, nazarga ilinmagan ayollar, qo‘g‘irchoqlar va isyonchilar. Mensfildning kambag‘al yoki boy, yolg‘iz yoki turmush qurgan ayol qahramonlari o‘z jamiyatining qurbonlaridir. Mensfildning ayollar haqidagi hikoyalarini tadqiq etish, nafaqat, o‘z davri G‘arbdagi ayollarning murakkab sharoitlarini anglashga, balki zamonaviy adabiyotda ayol xarakterining ifodalanishiga zamin qo‘yganligi masalasini tushunishni rivojlantiradi”).

Olimning yuqoridagi fikrlaridan ko‘rininb turibdiki, u yozuvchining asarlarini sinchiklab o‘rgangan. Hikoyalaridagi ayol obrazlarini aniq toifalarga ajratgan. Chindan ham, Mensfild asarlaridagi bosh qahramonlar hayotda ko‘p qiyinchilik ko‘rgan, sinovlardan charchagan, umidsizlik girdobiga botgan ayollardir. Maqolada ularning bu darajaga tushib qolishiga o‘sha davrdagi ijtimoiy hayotning katta ta’siri borligi, ular muhitning jabrdiydalari, siyosiy tuzumning qurbonlari bo‘lganliklari ta’kidlab o‘tilgan.

Haqiqatan ham, jamiyatdagi bu kabi muammolar talqini K. Mensfild hikoyalarida yetakchilik qiladi. Jumladan, “Bliss” (Baxt) deb nomlangan hikoyasi o‘zini individual shaxs sifatida tushunish uchun kurashayotgan yosh ayol haqida. Miss Brill qashshoq, yolg‘izlikda hayot kechirayotgan, turmush qurish nasib qilmagan qari qiz. “Pictures”(Suratlar) hikoyasi fohishalik bilan shug‘ullanishga majbur bo‘lgan qo‘shiqchi ayol haqida.

Ayol haq-huquqlari uchun kurash ketayotgan o‘sha davrda Ketrin Mensfild, Virjiniya Vulf va Richardson

kabi ayol yozuvchilar o'z asarlari orqali butun jamiyatni ayollarning mavqeyini tiklash, bu yo'lda qat'iy kurash olib borishga da'vat etishadi. Boshqa modernist yozuvchilar singari, Mensfild ham tashqi dunyoga emas, balki o'z qahramonlarining ichki dunyosiga e'tibor qaratadi. Har xil ichki monologlarni qo'llash orqali ularning qalb kechinmalarini tasvirlab berishga harakat qiladi.

Garchi Mensfild, odatda, hikoyalarini uchinchi shaxs nomidan yozsa-da, u o'z qahramonlarining ruhiyatiga kirishga qodir. Ularning psixologik holatini to'liq ochib bera oladi. Mensfild o'z qahramonlarining psixologik holatini yoritishda, ko'pincha, simvolizmdan, hayajonli tasvirlardan foydalangan. Uning hikoyalari ana shunday ramzlarga to'la: "Bliss" (Baxt)dagi nok daraxti va mushuk, "Miss Brill"dagi tulki mo'ynali o'rami va "Dill Pickle" (Tuzlangan arpabodiyon) hikoyasidagi qo'lqop kabi buyumlar ramz sifatida qo'llanilgan.

Mensfildning eng muvaffaqiyatli hikoyalaridan "Bliss", inson kuch-qudratining timsoli. Undagi ifoda usullari o'ziga xos va yangicha. XIX asr realizmiga zid o'laroq, syujet, ketma-ket rivojlanish va xulosaning an'anaviy cheklovlarini yengib o'tuvchi uslub g'alabasidir. Garchi u modernistik harakatning markaziy figurasi bo'lmasa-da, Vulf va Joys kabi yozuvchilarning yangi usullarini o'zlashtirishga, asarlariga tatbiq etishga qat'iyat bilan harakat qiladi. Davr tasviriy san'atidagi zamonaviy o'zgarishlar kabi Mensfildning qisqa hikoyalarida ham kayfiyatlar, taassurotlar va o'tkinchi his-tuyg'ularni ifodalashga alohida e'tibor qaratiladi.

Mensfild ko'plab hikoyalarining asosida epifaniya lahzasi, ya'ni, xarakterning o'zini o'zi anglash darajasiga ko'tarilishi turadi. Ammo bu tushunish kamdan-kam hollarda baxtga olib keladi. Masalan, "Dill Pickle" (Tuzlangan arpabodiyon) asarida Vera to'satdan o'zining sobiq sevgilisi uni o'zi tushunganidan ko'ra ham yaxshiroq tushunishini anglab, iztirob chekadi. Ammo undan hech qanday naf ko'rmaydi. Chunki Mensfildning qahramonlari ayollar uchun imkoniyatlar cheklangan dunyoda yashaydi.

Uning asarlari ma'lum bir strukturaga mos kelmaydi. Aksincha, Mensfild jamiyatning odatiy ko'rinishini oladi va uni kutilmagan holatlar bilan yonma-yon qo'yadi. Bu esa o'quvchini asarda tasvirlangan ma'nolarni turlicha talqin qilishiga imkon beradi. Mensfild o'z davrining eng yaxshi hikoyanavislaridan biri hisoblangan. Asarlari kichik hikoyalar antologiyalariga tez-tez kiritilgan. Sinfiy tabaqalanish, yolg'izlik, ayollar huquqlari, reallikka xos tashqi ko'rinishlar, o'zaro insoniy munosabatlar va bolalik kechinmalari kabi mavzularda hikoyalar yozgan. (Her work does not conform to particular linear structures, but rather, Mansfield takes the ordinariness of modern society and juxtaposes it with unconventional or unforeseen circumstances, leaving her reader to interpret the various meanings portrayed in her work. It is regarded that Mansfield is "considered one of the best short-story writers of her period, frequently included in short-stories anthologies, have written stories with themes ranging from class consciousness, loneliness, women" 's rights, Maoris, reality versus appearances, relationships and to childhood")(Begotti and Conrado 2) [Kyle Knickelbein. 200601890 English Honours: Literary Theory Lecturer: Dr. Dianne Shober. October 7, 2010. "A Feminist Surveillance of Katherine Mansfield's Selected Short Stories of the "New Dawn""]

Ko'rinadiki, Mensfild o'z hikoyalarini adabiyotdagi ma'lum qoliplar asosida yozmaydi. Uning asarlarida kutilmagan holatlarni ko'p kuzatishimiz mumkin. Shu orqali u o'quvchini hayotda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarga, kutilmagan holatlarga tayyorlaydi.

Yuzaki qarasak, Mensfild hikoyalari nofaol, tushkun ayollar taqdirini yoritadigandek ko'rinadi. Aslida esa, jamiyatdagi ana shu reallik kartinasini aynan chizib beradi. Tayyor holda aniq bir yechim ham bermaydi. Xulosa chiqarishni o'quvchining o'ziga qoldiradi. O'quvchiga ko'zgu tutadi. Fikrlovchi kitobxon, albatta, bundan o'ziga yetarli xulosa oladi. Yozuvchi nofaol hayot tarzi tasviridan o'quvchini faollikka yo'naltirish maqsadida foydalana oladi.

Mensfildning, "Men, avvalo, yozuvchiman, keyin esa ayolman" ("I am a writer first and a woman after" – Katherine Mansfield) degan fikri ham uning ko'proq ayollar yozuvchisi bo'lganligini isbotlaydi. "Rozabelning toliqishi" (The Tiredness of Rosabel) nomli hikoyasi fikrimizning yaqqol isboti bo'la oladi. Chunki, ushbu hikoya boshdan oxirigacha bosh qahramon, ya'ni Rozabelning o'y-kechinmalari va his-tuyg'ulari tasviridan iborat. Hikoyada Rozabelning turmushga chiqmagan, yosh, sodda qizligi, nochor hayot kechirishi va shu sababli orzular ummonida o'z xayollari bilan yashashi tasvirlangan. U har kunlik oddiy hayot tashvishlaridan charchagan, shuning uchun ham orzu qilishni yaxshi ko'radi. Hattoki, do'koniga kelgan ayol va uning turmush o'rtog'iga havas qiladi. O'z xayollarida uni o'zining turmush o'rtog'i sifatida tasavvur qilib ko'radi. Kambag'allik va yolg'izlik azobini tortgan Rozabel o'zining bir kunlik hayotini boy ayol o'rniga qo'yib ko'radi. Quyida berilgan parchada, u o'zini boy xonimlardek tasavvur qilib ko'radi: "Rozabel kamin yoqilgan xonasiga kirganida, uni bir uyum xatlar kutardi, u esa ularga hatto, e'tibor ham bermaydi. Xatlarning barchasida uni har xil taklifnomalar, jumladan, operaga, kechki ovqatlarga, kemada sayohat qilishga, mashinada sayohat qilishga takliflar kutar edi. Yotoqxonasida esa uning kumushga burkangan hashamatli liboslari yoyilib yotardi. Rozabel o'zini baldagi boshqa barcha ayollardan go'zal va jozibali deb hisoblardi. Baldagi erkaklar uning chiroyiga maftun bo'lishardi, xorijdan kelgan shahzoda esa ushbu "ingliz mo'jizasi" bilan tanishishga umidvor edi. (Hikoyadan olingan parchaning qisqacha mazmuni)

“В будуаре горит камин, занавеси опущены, ее ждет целая груда писем: приглашения в оперу, на обеды, балы, приглашение совершить в конце недели лодочную прогулку, автомобильное турне. Она равнодушно пробегает их глазами и идет наверх одеваться. В спальне тоже пылает камин, а на кровати разослано роскошное сверкающее платье- белый тюль поверх серебристого чехла, - серебристый шарф, серебряные туфельки и крошечный серебряный веер. Розабел знает, что она привлекательней всех женщин на этом балу, все мужчины отдают дань ее красоте, чужеземный принц жаждет быть представленным этому английскому чуду. ” [Л. Володарская, К. Менсфилд и ее рассказы, ст-43-44, Москва “Книга”, 1989]

Yuqorida keltirilgan jumlalar Rozabelning orzu-xayollari edi. U o‘zini shunday optimistik o‘y-xayollar bilan ovutib yashardi. Bunday orzular qilish go‘yoki unga zavq bag‘ishlardi va xotirjam qilardi. Ammo, shuni esdan chiqarmaslik kerakki, insonlar faqatgina xomxayollar bilan hayot kechira olishmaydi, aks holda ular real hayot bilan xayoliy dunyoni farqlay olmay qolishadi. Natijada, qandaydir hayot sinoviga yoki qiyinchilikka duch kelib qolishsa, u bilan kurashishga iroda topa olishmaydi va osongina taslim bo‘lishadi. Yozuvchi hikoyasida Rozabel haqida shunday deydi: “И оттого, что в наследство ей достался тот трагический оптимизм, который слишком часто оказывается единственным достоянием юности ” [Л. Володарская, К. Менсфилд и ее рассказы, ст-46, Москва “Книга”, 1989]

Yozuvchining gaplaridan ma’lumki, u bunday xayolparastlikni “трагический оптимизм” deb ataydi, ya’ni fojeaviy optimizm. Bundan ko‘rinib turibdiki, demak, muallif o‘z qahramonining xayolot dunyosini oqlamaydi, Rozabel faqat tasavvur qilishga, orzu qilishga odatlanib qolganini, bu esa juda ham ijobiy holat emasligini o‘quvchiga anglatmoqchi. Chunki har qanday orzuga yetishishning birgina yo‘li bor. U ham bo‘lsa iroda kuchiga tayangan holda olg‘a intilish va harakat qilishdir. Bu hikoya orqali Ketrin ayollarni harakatga, faollikka, jo‘shqin hayot tarziga da’vat etadi.

Ko‘rinadiki, Ketrin Mensfild o‘z asarlarida ayollar dunyosini, ularning o‘y kechinmalari, hayot tarzlarini ifodalashga harakat qilgan. Ayniqsa, hayotda qiynalgan, yolg‘iz, nochor hayot kechiruvchi ayollar uning qahramonlariga aylangan. Bu orqali u, avvalo, zamondoshlariga ayollarga e’tibor berish, ularni qo‘llab-quvvatlash lozimligini anglatishni maqsad qilgan. Ikkinchidan esa, o‘z hikoyalari vositasida zamondosh ayollar, dugonalarni uyg‘onishga da’vat etgan. Chunki jamiyatda ayollar ham juda katta kuch. Ular yosh avlodni bilimli, ma’naviyati yuksak insonlar etib tarbiyalashi bilan bir qatorda, jamiyatga faol aralashish qudratiga ham ega. Yozuvchi ayollarning faol vakili sifatida, ularga ko‘zgu tutadi va o‘zlarini tanishga yo‘naltiradi. O‘zini tanigan inson esa, hech qachon o‘zini xafa qildirib qo‘ymaydi. Qadrini biladi. Ketrin Mensfild hikoyalarining muhimligi ham xuddi shunda. Shu sababli ham yozuvchi hikoyalari zamonlar o‘tsa-da, aslo eskirmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Aihong Ren. CS CANADA. Studies in Literature and Language.Vol.5 No 3 (2012).

2.Kyle Knickelbein. 200601890 English Honours: Literary Theory Lecturer: Dr. Dianne Shober. October 7, 2010. “A Feminist Surveillance of Katherine Mansfield’s Selected Short Stories of the “New Dawn””.

3.А. А. Бурцев, М. А. Бурцева. Концепция человека в рассказахКэтринМэнсфилд.2017,С.191

4.Л. Володарская. Кетрин Менсфилд и ее рассказы. Сm.: Кетрин Менсфилд. Рассказы. Перевод с англ. Москва. Книга. 1989, стр.13

5.Roza Turdiyeva. (2022). O‘ZBEK, INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDA MILLIYLIKGA YO‘NALTIRILGAN NUTQ TAKTIKASI SIFATIDA TILAK VA ILTIFOT. Innovative development in educational activities, 1(6), 356–358. https://doi.org/10.5281/zenodo.7496957

6.Abdullayeva, U. R. (2021). Specific language of newspaper style through headlines. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 1188-1192.

7.Shakhnoza Sultanova. (2023). CRITERIA FOR CREATING AN ELECTRONIC DICTIONARY OF GRAMMATICAL TERMS. INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY, 3(6), 1510–1515. https://doi.org/10.5281/zenodo.8115591

8.Radjabova, J. (2023). THE ROLE OF TECHNOLOGY IN ESL TEACHING. Евразийский журнал академических исследований, 3(3 Part 3), 197–200. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/11746

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.7791143

9.Xasanovna, M. S. . (2023). THE BASIC ASPECTS AND CHALLENGES OF TEACHING VOCABULARY FOR THE EFL LEARNERS . Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(5), 46–50. Retrieved from https://univerpubl.com/index.php/horizon/article/view/1359

10.Turaeva, S. (2023). EFFECT OF CRITICAL PERIOD ON SECOND LANGUAGE ACQUISATION. Innovative Development in Educational Activities, 2(21), 139–145. Retrieved from https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1797